

**NIKOHDAN AJRASHISH JARAYONIDA BOLALARNING IJTIMOIIY-
PSIXOLOGIK HIMOYASINI TA'MINLASH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA
XALQARO AMALIYOT TAHLILI.**

Sattorov Boburbek Baxtiyor o'g'li

Farg'ona davlat universiteti magistranti

"Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi ijtimoiy xodimi

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.12.2025

Revised: 11.12.2025

Accepted: 12.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*nikoh, ajrim, oila,
maktab, ijtimoiy
himoya, psixologik
himoya, model, ilmiy
tavsiya, ijtimoiy ishchi.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada nikohdan ajralish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning ijtimoiy hamda psixologik himoyasini ta'minlash masalasi ijtimoiy ish fanining asosiy yondashuvlari orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy baza, mavjud ijtimoiy xizmatlar tizimi hamda "Mahalla — oila — maktab" o'zaro hamkorlik mexanizmining amaliy ahamiyati keng yoritiladi. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlarning ajralishdan keyingi davrda bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha shakllangan ilg'or amaliyotlari taqqoslab o'rganiladi. Mazkur davlatlar tajribasiga tayanilgan holda O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan "ijtimoiy-psixologik yordam modeli" taklif etilib, unda ijtimoiy xodimlarning mediatsiya, rehabilitatsiya hamda maslahat berish jarayonlaridagi vazifalari asoslab beriladi. Maqola ajralishning salbiy oqibatlarini kamaytirish, bolalarning emotsional barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy ish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan

ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kirish

Oila inson hayotidagi eng muhim va barqaror ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, u jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishida, axloqiy me'yorlar shakllanishida va psixologik barqarorlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Biroq, globallashuv jarayonlari, iqtisodiy muammolar, migratsiya ko'lamining kengayishi, axborot oqimlarining ortishi va qadriyatlar tizimining o'zgarishi oilaviy hayotning barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmayapti. Shu omillar ta'sirida so'nggi yillarda nikohdan ajralish holatlari ko'payib, bu jarayon ijtimoiy ish amaliyotida alohida e'tibor talab qiladigan dolzarb muammoga aylanmoqda [1].

Ajralishning eng katta zarbasi, avvalo, voyaga yetmagan bolalarga tushadi. Ota-onaning alohida yashay boshlashi bolada hissiy bosim, xavfsizlik hissining pasayishi, ijtimoiy muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar va o'zini yolg'iz his qilish kabi salbiy holatlarga sabab bo'ladi. Psixologik jihatdan esa bunday bolalarda tushkunlik, ishonchsizlik, tajovuzkor reaksiya, yopiq xarakter yoki ijtimoiy izolyatsiya belgilari kuzatilishi mumkin. Shu bois ajralish jarayonida bolalarning ijtimoiy-psixologik himoyasini ta'minlash masalasi faqat psixologiya yoki pedagogika doirasidagi vazifa bo'lib qolmay, balki ijtimoiy ish tizimining ham ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda [2].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, oila institutini mustahkamlash va bolalarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. "Oila kodeksi" (1998-yil 30-aprel), "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonun (2008-yil 7-yanvar) hamda "Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun (2021-yil 12-aprel) oilaviy nizolarni oldini olish, ajralish oqibatlarini yumshatish va voyaga yetmaganlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi tashkiliy-huquqiy asoslarni mustahkamladi [3].

Bugungi kunda ijtimoiy xodimlarning oldida turgan muhim vazifalardan biri — ajralish jarayonida va undan keyin oilalarga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishdir. Chunki bola uchun ota-onaning ajralishi faqat huquqiy o'zgarish emas, balki hayotidagi eng og'ir emotsional sinovlardan biridir. Shu sababli bunday oilalar bilan ishlashning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish, ilmiy asoslangan metodlarni qo'llash va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish dolzarb masalaga aylangan [4].

Maqolani tayyorlash jarayonida tizimli, funksional va psixologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi, U. Bronfenbrennening ijtimoiy ekologiya modeli, M. Midning ijtimoiy moslashuv konsepsiyasi hamda BMT va UNICEFning bola himoyasiga oid tavsiyalari tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari chuqur o'rganildi [5].

Ushbu yondashuv ijtimoiy ish amaliyotida bolaga faqat yordam oluvchi subyekt sifatida emas, balki o'z manfaatlari va ehtiyojlariga ega mustaqil shaxs sifatida yondashish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy xodim oilaviy nizolarni yengillashtirishda mediatsiya va reabilitatsiya jarayonlarida faol ishtirok etib, avvalo bolaning manfaatini birinchi o'ringa qo'yishi kerak.

O'zbekiston sharoitida ajralish holatlarining ko'payishi bilan birga, voyaga yetmaganlarning psixologik jarohatlanishi ham ortayotgani ijtimoiy tahlillarda yaqqol kuzatilmoqda. Shu bois bolalarning ijtimoiy-psixologik himoyasini kuchaytirish, ularni yangi sharoitga moslashtirish, hissiy barqarorligini tiklash bugungi kunda ijtimoiy ish tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan [6].

Adabiyotlar tahlili va metodlar

O'zbekiston Respublikasida bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi davlatning ijtimoiy siyosatida muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonunda (2008-yil 7-yanvar) nikohdan ajralish jarayonida voyaga yetmaganlarning manfaatlarini, ularning tarbiyasi, yashash sharoiti, ta'lim olishi va ruhiy sog'ligining kafolatlanishi ota-onaning teng majburiyati sifatida mustahkamlab qo'yilgan [7]. Mazkur huquqiy norma ajralish jarayonida bolani himoyalashni davlat, oilalar va ijtimoiy xizmatlarning umumiy vazifasi ekanligini belgilaydi.

Bundan tashqari, 2021-yil 12-apreldagi "Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonunda ajralish jarayonida yoki undan keyingi davrda bolalarga psixologik, pedagogik va ijtimoiy ko'mak ko'rsatish mahalliy hokimiyat organlari, professional ijtimoiy xizmat markazlari hamda nodavlat tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan [8]. Ushbu huquqiy asos ijtimoiy xizmatlarning bolalar manfaatini himoya qilishdagi tashkilotlararo hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatda joriy etilgan "Mahalla — oila — maktab" tizimi bolalarni himoya qilishning kompleks mexanizmlarini yaratishda muhim o'rin tutmoqda. Mazkur tizim doirasida ajralish arafasidagi oilalarga ijtimoiy va psixologik maslahatlar berish, nizo

va kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etish, bola manfaatlariga xizmat qiluvchi mediatsiya xizmatlarini yo'lga qo'yish kabi amaliy choralar ko'rilmogda. Ajralish jarayonida ijtimoiy xodim va psixologlar faoliyati bir qator ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- bola bilan individual psixologik suhbatlar o'tkazish;
- ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etishda vositachilik qilish;
- bolani yangi ijtimoiy muhitga moslashtirishga ko'maklashish;
- bolaga doir huquqiy masalalarni (vasiylik, aliment, yashash joyi) monitoring qilish [9].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ajralishdan so'ng aksariyat hollarda bola onasi bilan qoladi, ota esa moddiy ta'minot bilan cheklanadi. Bu esa bola uchun hissiy ehtiyojlarning to'liq qondirilmasligiga, otaga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtada ijtimoiy ishchining vazifasi bolaning emotsional holatini baholash, oila a'zolarini psixologik qo'llab-quvvatlash, ota-onalar o'rtasida konstruktiv muloqotni tiklashdan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy xodimlarning ajralish jarayonidagi vazifalari asosan uchta asosiy roлга tayangan holda amalga oshiriladi: vositachi, maslahatchi va himoyachi. Mediatsiya jarayonida ijtimoiy ishchi ota-onalar o'rtasida muloqotni tiklashga yordam beradi, maslahatchilik funksiyasi orqali ular farzand tarbiyasi, stressni boshqarish, bolada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik qiyinchiliklar bo'yicha kerakli tavsiyalar beradi [10].

UNICEF va BMT tomonidan tavsiya etilgan "Family Case Management" modeli esa ijtimoiy xodimlar zamonaviy yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Ushbu modelga ko'ra, ijtimoiy xodimlar bola uchun alohida "holatni boshqarish rejasi"ni ishlab chiqadi. Rejada bolaning ruhiy holati, maktabdagi moslashuvi, ota-onaning muloqoti, oila iqtisodiy sharoiti va xavfsizlik omillari tahlil qilinadi. [11].

So'nggi yillarda ijtimoiy pedagoglar va psixologlar tomonidan "ota-onalik mas'uliyati" bo'yicha treninglar joriy etilgan bo'lib, ular ajralishning salbiy oqibatlarini yumshatishga, bolada stress darajasini pasaytirishga xizmat qilmoqda [12].

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda ajralish jarayonida bolalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish tizimi keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, AQSHda faoliyat yurituvchi "Family Counseling Centers" markazlari bolalarga individual psixologik yordam ko'rsatadi, ota-onalarga esa "co-parenting" dasturlari orqali birgalikda tarbiyalash masalalarida yo'l-yo'riq beradi [13]. Buyuk Britaniyada esa CAFcASS tizimi

ajralish jarayonidagi bolalarning huquqlarini himoya qilib, har bir bola uchun alohida “ijtimoiy hisobot” tayyorlaydi. Bu hisobot sud qarorlarini qabul qilishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi [14].

O‘zbekiston amaliyoti ko‘proq davlat tomonidan boshqariladigan ijtimoiy himoya tizimiga tayangan bo‘lsa, xalqaro tajribada psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, bolaga individual psixolog tayinlash kabi mexanizmlar keng qo‘llaniladi. Yevropa davlatlarida ajralish bilan bog‘liq har bir holatda ota-onalar uchun majburiy oilaviy maslahat sessiyalari o‘tkazilishi ham shular jumlasidandir [15].

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, “ijtimoiy xizmatlar paketi”ni kengaytirish, bolalar rehabilitatsiyasiga oid yangi dasturlarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Ushbu yangilanishlar ajralish jarayonida bolalarning ruhiy barqarorligini saqlash, yangi ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtirish va oilaviy nizolarni yumshatishda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajribadagi ilg‘or modellarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish O‘zbekistonda ajralish jarayonida bolalarning ijtimoiy-psixologik himoyasini yanada kuchaytiradi. Bu esa bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, oilaviy nizolar sonini kamaytirish va jamiyatda sog‘lom muhit yaratishga xizmat qiladi. Shunday ekan, milliy va xalqaro amaliyotlarning uyg‘unlashtirilishi ijtimoiy ish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

O‘zbekiston sharoitida xalqaro yondashuvlarni moslashtirish orqali bolalarning ruhiy barqarorligini mustahkamlash, oilaviy nizolar sonini kamaytirish va ijtimoiy ish tizimini yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda ijtimoiy xodimlar vositachi, maslahatchi va himoyachi sifatidagi funksiyalarni samarali bajarishi, bolaning manfaatlarini har bir qaror va amaliyot markazida saqlashi zarur. Milliy tajriba va xalqaro amaliyotning uyg‘unlashuvi ajralish oqibatlarini yumshatishda, bolalar uchun xavfsiz ijtimoiy-psixologik muhit yaratishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ajralish jarayoni bolalar hayotida ruhiy izzat, xavfsizlik hissinin pasayishi va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kabi muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy xodimlar bolani faqat himoyaga muhtoj subyekt sifatida emas, balki o‘ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga ega mustaqil shaxs sifatida ko‘rib chiqishi zarur. Individual yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash va oilaviy muloqotni tiklashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bu borada eng muhim vositalardir.

O'zbekiston amaliyotida "Oila kodeksi", "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonun, "Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, Prezident qarorlarida belgilangan vazifalar oilaviy nizolarning oldini olish va bolalarni himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy asosni tashkil etadi. "Mehr-shafqat" markazlari, mediatsiya xizmatlari, psixologik reabilitatsiya dasturlari kabi mexanizmlar bolalarning ruhiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli O'zbekiston ushbu ilg'or yondashuvlarni bosqichma-bosqich milliy tizimga integratsiya qilsa, bolalarning ijtimoiy-psixologik himoyasini yanada mustahkamlash, ularning emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va jamiyatda sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu jarayonda ijtimoiy xodimlarning professional tayyorgarligi, ularning vositachilik va himoya funksiyalarini samarali amalga oshirishi alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish, bolalarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va kompleks ijtimoiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish ajralish oqibatlarini sezilarli darajada yumshatadi va bolalar uchun barqaror, xavfsiz hamda qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, A. (2022). Oila va ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Xudoyberdiyeva, M. (2021). Nikohdan ajralish va bolalar taqdiri: ijtimoiy-psixologik yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. (1998-yil 30-aprel). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
4. Rasulova, N. (2020). Ijtimoiy ish va oilaviy nizolar: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Erikson, E. (1993). Childhood and Society. New York: W.W. Norton & Company.
6. Qodirova, D. (2021). Oila nizolari va ijtimoiy ish: bolalar manfaatlarini himoya qilish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonun. (2008-yil 7-yanvar). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

8. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun. (2021-yil 12-aprel). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi. (2023). Oilaviy nizolar profilaktikasi bo'limlari faoliyati haqida hisobot. Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy xizmatlar markazi. (2022). "Mehr-shafqat" markazlari faoliyati bo'yicha yillik hisobot. Toshkent.
11. UNICEF. (2023). Family Case Management Model: Implementation in Uzbekistan. New York: United Nations Children's Fund.
12. BMT. (2022). Child Protection and Family Support Guidelines. Geneva: United Nations.
13. American Psychological Association. (2021). Family Counseling and Co-parenting Programs in the United States. Washington, DC.
14. CAFCASS. (2021). Children and Family Court Advisory and Support Service: Annual Report. London: UK Government.
15. European Commission. (2020). Family Support and Child Protection Systems in Europe. Brussels: EU Publications.
16. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida Qonun. (2021-yil 12-aprel). Toshkent: Adliya vazirligi.